

Tasdiqlayman:

MCHJ «Auto Rubber»

Bosh direktori v.v.b.

A.A. Sadikov

2022





“Auto Rubber” MCHJ ishchi xodimlarini tibbiy ko’rikdan o’tkazish uchun ish,
xiznatlarini sotib olish yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha harid
hujjatlari

Andijon sh

2022

“Auto Rubber” MCHJ ishchi xodimlarini tibbiy ko’rikdan o’tkazish uchun ish, xizmatlarini sotib olish yuzasidan eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha harid komissiyasi a'zolari

Kiritildi:	“AUTO RUBBER” MCHJ harid komissiyasi kotibi	 Arzibayev A.
	“AUTO RUBBER” MCHJ harid komissiyasi a'zolari:	Imzo:
	A. Sadikov	
	V. Xalimov	
Kelishildi:	A. Mamadaliyev	
	X. Urmanov	
	J. Olimov	
	D. Kosimov	

MUNDARIJA

1. Tanlov ishtirokchilariga ko'rsatmalar.
2. Tanlovning texnik qismi.
3. Tanlovning narx qismi.
4. Sharhnomalar loyixasi.

I. TANLOV ISHTIROKCHILARIGA KO'RSATMALAR

1	Umumiy tartib	<p>1.1 Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasi quyidagi qonun talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'RQ-684 sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi (keyingi o'rnlarda – «Qonun») qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi «Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi №PF-3550 sonli (keyingi o'rnlarda – «Farmon») farmoni xamda «Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyruq (Adliya Vazirligi ro'yxat raqami 26.05.2018 y. kungi №3016 (keyingi o'rnlarda – «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan.</p> <p>1.2 Tanlov predmeti: ishchi xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish</p> <p>1.3 Tanlovning minimal qiymati va valyutasi tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.</p> <p>1.4 Sotib olinadigan tovar (xizmat, ish) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan.</p> <p>1.5 Xarid komissiyasining majlislari online tarzda yoki, videokonferentsiyalar (telekonferentsiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi ham mumkin</p>
2	Tanlov Tasnifotchisi	<p>2.1 Tanlov buyurtmachisi «Auto Rubber» (keyingi o'rnlarda - «buyurtmachi»). Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, Andijon sh., pr Bobur, 73 «Buyurtmachi» Rekvizitlari: MFO 00083, STIR 306763383 v.x/r 20208840905129036001 x/r: 20208000605129036001 «HAMKORBANK» ATB Bosh ofisi</p> <p>2.2 Buyurtmachi bilan bog'lanish: Xarid va logistika bo'limi mutaxassisi: Arzibaev Azizbek tel: +99890 141 42 00 Mamataliyev Ahror tel: +99891 494 60 17 info@autorubber.uz</p> <p>2.3 Tanlov komissiyasi ishchi organi «Auto Rubber» MCHJ hodimlari orasidan kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda tuzilgan harid komissiyasi xisoblanadi (keyingi o'rnlarda - «Ishchi organ»).</p> <p>2.4 Sharhnomalar egasi: MCHJ «Auto Rubber»</p> <p>2.5 Tanlov xujjatlari qonun xujjatlari asosida shakllangan kamida besh kishilik harid komissiya a'zolari tomonidan baxolanadi.</p>
3	Tanlov qatnashchilari	<p>3.1 Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezident va norezidentlari qatnashish xuquqiga ega. Tanlov xujjatining 4.2 bandida sanab o'tilgan talablar budan mustasno.</p>

4	Tanlov o'tkazish taribi	4.1	Tanlovda qatnashish uchun tanlov qatnashchilari: a) Qonun xujjatlari va tanlov xujjatlari talablari xamda shartlariga muvofiq tijroiy taklifini yuborish.
		4.2	Tanlovda qatnashish uchun quyidagi qatnashchilarga ruxsat etilmaydi:
			Soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorlik mavjudligi, bankrotlik yoqasida turganligi, offshor hududda hisob raqamlari mavjudligi, o'zaro affillangan shaxslar borligi yoki insofsiz ijrochilar yagona ro'yhatiga kirib qolganligi sababli qayta tashkil etilayotgan, tugatish va bankrotlik xolatlarida turgan tashkilotlar;
			Buyurtmachilar bilan sudlashish jarayonida yoki arbitraj sudida muxokamada bo'lган qatnashchilar;
			Insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida turuvchi qatnashchilar;
			Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi mavjudlar;
			imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va / yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmagan shtatlar yoki hududlarda ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlari bo'lgan (offshor hududlar);
			O'zaro affillangan shaxslar tanlovda birga ishtirok etishi mumkin emas
		4.3	Buyurtmachi quyidagi holatlarda ishtirokchini tanlovda qatnashishni diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega:
			ishtirokchi tanlov jarayonida qaror qabul qilish uchun yoki boshqa xarakatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita xaridorning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsiga, yoki xodimiga, yoki boshqa davlat organiga har qanday shaklda, qimmatbaho narsa, yoki xizmat taklif qilsa;
			ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holdaadolatsiz raqobat ustunligiga yoki manfaatlar to'qnashuviga ega.
5	Tanlov tili, o'lchov birligi.	5.1	Tanlov taklifi va ishtirokchi bilan buyurtmachi o'rtasida amalga oshiriladigan barcha tegishli yozishmalar (hujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Tanlov taklifi boshqa tilda bo'lishi mumkin, agar u o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa. Tanlov taklifi matnida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, bir nechta til ishlataliganda, o'zbek tili ustun deb hisoblanadi. Texnik hujjatlarni ingliz tilida taqdim etishga ruxsat beriladi.
			Taklif umumiyl qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanishi kerak.

6	Tanlov taklifi va unirasmiy lashtirish taribi	6.1	Portalda e'lon qilingan tanlov ishtirokchilari taklifni belgilangan tartibda http://etender.uzex.uz saytiga joylaydi.
		6.2	<p>Tanlov ishtirokchisi:</p> <p>Yakka tartibdagi tadbirkor yoki rezident faqatgina elektron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro'yhatdan o'tishi mumkin bo'ladi.</p> <p>Portalga joylangan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligi uchun javobgardir;</p> <p>faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;</p> <p>takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan taklifni qaytarib olish.</p>
		6.3	<p>Taklif ikki qismidan iborat:</p> <p>Texnik qism. Buyurtmachining texnik talablariga javob berishi va taklif qilinayotgan mahsulotning batafsil tavsifini o'z ichiga olishi kerak;</p> <p>Narx qismi. Tanlov shartlariga mos kelishi va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak (shu jumladan mahsulot nomi, birlik narxi, barcha soliqlarni o'z ichiga olgan umumiyligi, to'lov shartlari, taklifning haqiqiyligi va boshqalar).</p>
		6.4	Korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tanlov ishtirokchilarining arizasi majburiy ravishda portalga joylanadi.
		6.5	Tanlov takliflari http://etender.uzex.uz portalida e'lon qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida (17:00 gacha): http://etender.uzex.uz portaliga joylanadi
		6.6	Tanlov ishtirokchilarining takliflarini amal qilish muddati takliflar tugagan kundan boshlab kamida 7 (yetti) kun bo'lishi kerak.
7	Takliflarni berish muddatlari	7.1	Buyurtmachi tanlov takliflarini qabul qilish muddatlarini uzaytirishi mumkin emas, faqatgina tanlovni qayta e'lon qilishi mumkin.
		7.2	Tanlovlarni qayta e'loni axborot portalida joylashtiriladi va agar kerak bo'lsa, xaridor veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.
8	Tanlov hujjalarning kiritiladigan o'zgarishlar	8.1	<p>Zarur bo'lganda, buyurtmachi tanlov hujjalarning o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.</p> <p>Tanlov hujjalarning o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror takliflarni taqdim etish muddati tugashidan uch kundan kechiktirmay qabul qilinishi mumkin.</p>

			<p>Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish jarayonida mahsulot (ish, xizmat) yoki ularning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Agar tanlov hujjatlariga takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab kamida o'n kunga uzaytiriladi.</p> <p>Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.</p>
9	Tanlovga takliflari baholash tartibi va mezonlari	9.1	<p>Buyurtmachi komissiya a'zolari ro'yxatini shakllantirishdan avval, har bir komissiya a'zosi haqida ma'lumot kiritib chiqish bilan birga unga shaxsiy kabinet yaratadi.</p> <p>Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Komissiya" bo'limiga kirib "Qo'shish" tugmasini bosadi.</p> <p>Komissiyaning har bir a'zosi uchun shaxsiy kabinet yaratilgandan so'ng, har bir a'zo ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan elektron pochtaga tizim shaxsiy kabinetni faollashtirish uchun havola yuboradi.</p> <p>Shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart.</p>
		9.2	<ul style="list-style-type: none"> - Ball usuli – tanlov taklifining texnika va kvalifikatsion hamda narh qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi. - Eng past narh usuli – tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra eletron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narhni taklif etgan ishtirokchini
	 Геречень квалификационных /	9.3	Tanlov komissiyasi tanlov g'olibini aniqlash bo'yicha rad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.
		9.4	Tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar ishonchli bo'limganligi aniqlangan taqdirda, tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda qatnashishdan chetlatishga haqli.
		9.5	Tanlov hujjatlari muvvafaqqiyatli joylashtirilgandan so'ng, moderatsiyaga yuboriladi. Tanlov hujjatlari moderatsiyadan muvvafaqqiyatli o'tgandan so'ng tizim tanlov hujjatini avtomatik tarzda komissiya a'zolariga yuboradi.
		9.6	Tanlov hujjatlari komissiya a'zolari tomonida ko'p ovoz yi'gish yo'li bilan tasdiqlanadi. Kommisiya a'zolarining kotibidan tashqari har biri bir marotabadan ovoz berish huquqiga ega.
		9.7	Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan taklif tanlov xujjatlari

			talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi
		9.8	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga kelsa harid komissiyasining a'zolari va ma'sul kotibi o'zaro chat orqali muloqot qilishlari mumkin bo'ladi.
		9.10	Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baxolash paytida taklif summalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tanlov taklifining narxga oid qismi bor tanlov tugashi sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha xisoblanadi.
		9.11	Tanlov hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnoma bajarilishi uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi.
		9.12	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjati bo'yicha e'tirozlar mavjud bo'lsa, buyurtmachida tanlov hujjatlari bir ovozdan tasdiqlanmaganligi haqida ma'lumot aks etadi, buyurtmachi kerakli, buyurtmachi kerakli ma'lumotlarni o'zgartirib, qayta moderatsiyaga jo'natadi, tanlov hujjati moderatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkandan so'ng tizim avtomatik tarzda ularni komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Komissiya a'zolari tanlov hujjatlarini qaytadan ko'rib chiqadilar. Tanlov hujjatlari komissiya tomonidan bir ovovzdan ma'qullangandan so'ng, komissiya kotibi yoki raisi buyurtmachiga yuboradi.
		9.13	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan amaldagi barcha turdag'i soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riliги va to'liqligi uchun javobgardir.
		9.14	--Komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjati komissiya kotibi yoki raisi tomonidan buyurtmachiga yuboriladi.
		9.16	Harid protsedurasi natijalariga ko'ra, alohida har bir mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha bir nechta g'oliblar yoki umumiy natija orqali aniqlanishi mumkin.
		9.17	Ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan takliflar tanlov o'tkazish bo'yicha e'londa ko'rsatilgan talablar asosida tanlov taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarini va narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismining miqdori ko'rsatkichlarga ega bo'limgan mezonlarini (ekspert mezonlari) baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

		9.18	<p>Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda) - tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.
10	Tomonlarning javobgarligi va maxfiylik bajarilishi  Соғл о конфиден.rar	10.1	<p>O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib tushayotgan tanlov takliflarini xisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar; - komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rganish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtasida til biriktirishlar va boshqa noqonuniy xatti-xarakatlar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari - barcha maxfiy texnik ma'lumotlar (chizmalar, standartlar va x.k) buyutmachining tijorat siri bulib, uni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv tuzish orqali ishtirokchilarga taqdim etiladi. - Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, Ishtirokchi tomonidan oshkor qilingan xolatda, va bu xolat Buyurtmachiga zarar keltirsa, Buyurmachi ushbu zarar miqdorini to'laligicha qoplab berilishini Ishtirokchidan talab qilish xuquqiga ega va o'z navbatida Ishtirokchi zarar miqdorini, yo'qotilgan foyda miqdorini xisobga olgan xolda, Buyurtmachiga to'laligicha qoplab berishi shart. - Ishtirokchi, tijorat siri bo'lgan texnik ma'lumotlarni oshkor qilinishi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, fuqorolik, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi xaqida ogohlantirilganligini tasdiqlaydi.
		10.2	Shartnomaga bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan (miqdor, sifat va texnik parametrlar bo'yicha) tanlov g'olib O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va / yoki tuzilgan shartnomaga bo'yicha javobgar bo'ladi.
11	Boshqa talablar	11.1	Agar tanlov ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod mahsulotlarini taklif qilsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu mahsulotlar haqida uchinchi shaxslardan fikr-mulohaza bildirishni so'rashga haqli.
		11.2	Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar, o'tkazilayotgan tanlov haqida tushuntirish berish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.

	 Форма подачи запроса на разъяснение	11.3	<ul style="list-style-type: none"> - Elektron tanlov ishtirokchisida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga keladigan bo'lsa buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin murojaat qilishi mumkin bo'ladi. -Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.
		11.4	<p>Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> - tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki xech kim qatnashmasa; - takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi hamma takliflarni tanlov hujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan holda rad etgan bo'lsa.
		11.5	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtda tanlovni bekor qilishga haqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda, buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.
		11.6	Ishtirokchi asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi kerak.
12	Shartnomani rasmiylashtirish	12.1	Tanlov natijalariga ko'ra, shartnomaga tanlov hujjatlarida va shartnomaga tuzilgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan shartlarda tuziladi.
		12.2	<p>Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon komissiya tomonidan 5 (besh) kun ichida tasdiqlangandan keyin buyurtmachi e'lonni savdoga joylashtirishi kerak bo'ladi. Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Mening e'lonlarim" bo'limidagi jadvalning eng oxirgi "Harakat" bo'limi orqali "Savdoga joylashtirish" tugmasini bosadi.</p> <p>Tanlov o'tkazish bo'yicha e'lon joylashtirilgandan so'ng kamida 5 (besh) ish kuni davomida savdoda faol turadi, shu fursat ichida ishtirokchilar o'z takliflarini elektron tarzda berishlari mumkin bo'ladi. Shundan so'ng, avtomatik ravishda, eng yaxshi taklifni tanlash bayonnomasi chiqadi, so'ng bayonnomani 2 (ikki) kun ichida komissiya a'zolari g'olibni tasdiqlab beradilar va tomonlar o'rtasida shartnomaga tuziladi.</p>
		12.3	Agar tanlov g'olib tanlov shartlari to'g'risida shartnomaga tuzishdan bosh tortsa, shartnomaga tuzish huquqi zaxira pudratchiga o'tadi. Bunda zaxira pudratchi tanlov g'olibini taklif qilgan narx bo'yicha shartnomaga tuzishi yoki shartnomaga tuzishdan bosh tortishi mumkin.

2.TEXNIK QISM

Tcvar (ish, xizmat) lar ishtirokchi tomonidan ushbu harid hujjatining texnik qismidagi texnik topshirig'ida ko'rsatilgan talab va shartlarda etkazib berilishi shart.

E'lонning talablar qismiga ilova qilingan hujjatga qaralsin: Texnik topshiriq (TT)

3. NARXLAR QISMI

Ishtirokchi taklifda QQSni hisobga olgan xolatda narxlarni ko'rsatishi shart.
Ishtirokchi tovar (ish, xizmat) lar birligining narxini ko'rsatishga majburdir.

Buyurtmachi ishtirokchi tomonidan asosiy narx taklifiga qo'shimcha yoki uning o'rniga taklif qilinadigan muqobil narx takliflarini ko'rib chiqmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi. Narxlar o'z ichiga mahsulotlarni sertifikatlash bo'yicha xizmatlarni hisobga olgan holda ko'rsatilishi lozim.

1	Chegaraviy narx	11.200.000 so'm QQS bilan
2	Moliyalashtirish manbasi	O'z mablag'lari va qarz mablag'lari
3	To'lov shartlari va to'lov tartibi	1. Bajariladigan ishlarning umumiy qiymatidan oldindan 30% to'lov 2. Buyurtma tayyor bo'lgach 70%
4	To'lov valyutasi	UZS – O'zbekiston Respublikasi valyutasi
5	Eajarish davri	Shartnoma bo'yicha to'langan kundan boshlab 10 ish kuni
6	Tovar (ish, xizmat) yetkazib berish joyi (Talab qilinadigan hujjatlar bilan birga)	Andijon shahar, Boburshox 73
7	Taklifning amal qilish muddati	Takliflarni taqdim qilish vaqtini tugagandan so'ng 10 ish kuni

4. SHARTNOMA LOYIXASI

Shartnoma loyixasi ilova qilinadi